

## ISSIQ IQLIM SHAROITIDA QIZIL CHO'L ZOTLI QORAMOLLAR AVLODLARINING O'SISH VA RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI

**Sh.X.Bozorova, tayanch doktorant,**

**N.T.Safarova, tayanch doktorant,**

**B.Sh.Boybulov, ilmiy rahbar, q.x.f.n., katta ilmiy xodim**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** qoramol, buzoq, qizil cho'l, angler, genotip, bo'rdoqi, sut, go'sht, nisbiy o'sish, o'sish ko'effitsiyenti.

### Annotatsiya

Maqolada chorvachilikni rivojlantirayotgan dehqon va chorvachilik fermer xo'jaliklarida parvarishlanayotgan qizil cho'l, angler zotli qoramollar va ularning buzoqlarini, parvarishlash haqida malumot berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

**Mavzuning dolzarbligi.** Chorvachilik sohasiga zamonaviy innovatsion usullarni joriy etish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va chorvachilik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-iyuldagi "Xalqaro taraqqiyot uyushmasi hamda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida "Chorvachilik sohasini rivojlantirish (2-bosqich)" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-211-son qarori bilan hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish tizimini joriy etishga 33 million AQSh dollari yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.02.2022 yildagi PQ-121-son Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish, chorvachilik xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, chorva ozuqa bazasini yanada ko'paytirish, shuningdek, aholining yirik chorvachilik xo'jaliklari va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati asosida (keyingi o'rinlarda — kooperatsiya usulida) o'z xonadonlarida chorva mollarini boqishini tashkil etish va chorva ozuqa bazasiga bo'lgan talabini qondirish maqsadida: Qarorlarda ko'rsatilgan vazifalar esa, qoramolchilikni barqaror rivojlantirish uchun dastur amal vazifasini bajaradi.

Sut mahsuldorligi uchun Qizil Cho'l zoti qoramol yaxshi hisoblanadi. Bu 3500 dan sut 4000 kg o'rtacha sut sog'ib intervallarni tug'ish. Ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari yuqori sur'atlarini bor: u, 4000

dan 5000 kg o'rtacha zarur sut o'n ikki ming litr voz qodir rekordistki, yog 'kontent 5% gacha bo'lishi mumkin. Butun dunyo mamlakatlarida chorvachilikning asosiy tarmog'i qoramolchilikdir. Ulardan, aholi iste'moli uchun muhim bo'lgan sut va go'sht mahsulotlari olinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, dunyo bo'yicha iste'moldagi sutni 83,0 foizi sigir sutidir. Go'sht strukturasi qoramol go'shti cho'chqa va parranda go'shtidan keyin uchinchi o'rinda bo'lib, yetishtirilayotgan yalpi go'shtning 21 foizidan ortig'ini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida aholi iste'molidagi sutni deyarli barchasi, go'shtni esa 65 foizidan ortig'ini qoramol go'shtidir.

**Qizilcho'l qoramol zoti** - sut uchun boqiladigan zot. XVIII-asr oxirlarida Ukrainaning Zaporozhye viloyatida kulrang cho'l qoramollarini qizil ostfrisland, anglen, shortgorn, nemis qizil qoramol zoti va vilstermash zotlari bilan uzoq yillar chatishtirib chiqarilgan. 1941-yilgacha nemis qizil mollari nomi bilan yuritilgan. Qizilcho'l qoramol zotiz.ning tana tuzilishi mustahkam, bo'yi o'rtacha balandlikda, tusi qizil (ko'pchiligining boshi va tanasida oq qashqasi bor). Sigirlarining vazni 450500 kg, buqalariniki 800900 kg, buzoqlari 30–35 kg tug'iladi, 6 oylik bo'lganda 160–190 kg. Sigirlari o'rtacha 3000–4000 kg, sersutlari 10–12 ming kg gacha sut beradi, yog'liligi 3,7–3,9%. Go'sht mahsuldorligi qoniqarli. Novvoslarining o'rtacha kundalik vazn o'sishi 800–900 g, so'yim chiqimi 55–57%. Jahondagi ko'pgina mintaqalar va mamlakatlarda tarqalgan va ularning hududiy xillari, buqa tizimlari va sigirlar oilalari yaratilgan, seleksiya ishlarida samarali foydalanilmoqda.

O'zbekistonga 1882-yilda olib kelingan va Toshkent viloyatidagi "Qoplonbek" xo'jaligida urchitilgan, respublikaning iklim sharoitiga moslashgan podalar guruhlarini shakllantirilgan. Naslchilik zdlari va naslchilik xo'jaliklarida zot xususiyatlari takomillashtirilmoqda. Buxoro, Xorazm, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston hamda Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining cho'l hududlarida, Turkmanistonda boqiladi; O'zbekistonda rayonlashtirilgan zotlar orasida salmog'i bo'yicha 2-o'rinni egallaydi.

Respublikamizning bir guruh olimlari tomonidan o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlarda qoramollarning genetik imkoniyatlari, ularning go'sht va sut mahsuldorligi hamda sifat ko'rsatkichlarini yanada yaxshilashda, sut yo'nalishidagi sigirlarni jahon genofondiga xos go'shtdor qoramollarning nasldor buqalari bilan sanoat asosida chatishtirish, ulardan hududlarning tabiiy iklim sharoitiga mos keluvchi va ko'p mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi duragay avlodlar olish hisobiga, go'sht va sut ishlab chiqarish hajmlarini yanada ko'paytirish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Qizil cho'l zotli qoramollar avlodlarining issiq iklim sharoitida o'sish va rivojlanishini urganish.

#### **Tadqiqotning vazifalari.**

- xo'jalikning geografik joylashishi, tabiiy iklim sharoiti, ekologik holati tahlil qilinadi;
- tajribadagi hayvonlarni oziqlantirish va asrash sharoiti o'rganiladi;
- 6, 12, 18 oylikdagi buzoqlarning ekstriyer ko'rsatkichlari urganiladi.
- qizil cho'l zotli qoramollar buzoqlarining o'sish (kunlik, mutloq, nisbiy o'sish va o'sish koeffitsiyenti), rivojlanish ko'rsatkichlarini (yosh kesimida hayvonlarning tana o'lchamlari va tana tuzilish indeksleri) o'rganiladi. Shunga qarab xulosa qilinadi;
- tajribadagi hayvonlar buqalari 18 oylikkacha bo'rdoqiga boqilishi
- qizil cho'l zotli tanalarni qochirib (16-17 oyligida) erta sigirlar guruhiga kiritish
- tajribadagi hayvonlarni ayrim fiziologik (klinik va gemotologik ko'rsatkichlari va issiqqa chidamlilik indeksi) ko'rsatkichlarini o'rganish;

-tajribadagi hayvonlarni iste'mol qilgan ozuqasini mahsulot birligi bilan qoplash hususiyatini aniqlash;

-onalarining genotipi naslchilik xujjatlari asosida asosida urganiladi

-so'yimdagi qo'shimcha mahsulotlarni o'rganish;

- buqachalarni go'shtga yetishtirish iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Mavzuni ilmiy yangiligi.** Qo'shmahsuldor qizil cho'l zotiga mansub buzoqlarni o'sish va rivojlanishiga ozuqa ratsioni, issiq iqlim sharoitida ilk bor o'rganilmoqda.

**Tadqiqot ob'yekti va usullari.** Tadqiqotlarning tajriba qismi, 2023-2025 yillar davomida, Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi "Yurt rizqi-Naslchilik" fermer xo'jaligida olib borilmoqda

Tajriba uchun o'xshashlik asosida zoti, zotdorligi, jinsi, yoshi bo'yicha har bir guruhga 10 boshdan buzoqlar kiritilgan va 3 ta (2 ta tajriba, 1 ta nazorat) guruhi tashkil qilingan. Ular 15-18 oylikgacha jadal usulda o'stiriladi, yetishtiriladi va burdoqilanadi.

Tajribadagi hayvonlarni parvarishlash bir xil sharoitda tashkil etiladi.

Buzoqlarning onalarining ishlab chiqarish tipi naslchilik ishlarining natijalariga asosan ko'z bilan chamalab baholash va sutdorlik koeffitsiyentini aniqlash orqali aniqlanadi.

Har xil ishlab chiqarish tipiga mansub sigirlarning xo'jalik foydali belgilariga kompleks tashqi muhit va irsiy omillar ta'sir qilib, ular aniq bir tabiiy va ekologik sharoitga moslashadi hamda mahsuldorlik bo'yicha genetik potensialini yuqori darajada joriy qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki qizil cho'l zotli sigirlar bu usul bilan uch tipga bo'linadi: sut, sut-go'sht va go'sht.

Sut tipiga yetuk yoshdagi sigirlar har 1 kg tirik vazniga 8 kg va undan yuqori sut beradi, sut- go'sht yo'nalishidagilar 6-7,9 kg va go'sht- sut tipi esa 5,9 kg va undan past ko'rsatkichda sut beradi (G.F.Pustotina, 2006).

Podada 2,44 dan 24,4 foizgacha sut, sut- go'sht tipidagilar 30,9 dan 64,1 foizgacha, go'sht-sut tipidagilar esa 12,4 dan 65,4 foizgacha bo'lishi kerak. Demak sut-go'sht tipiga mansub sigirlar, boshqa tipdagilarga nisbatan ko'p urchiriladi.

**Tadqiqotlar.** Tadqiqotlarda hayvonlarni mutloq va nisbiy o'sish ko'rsatkichlarini o'rganish uchun, har bir tajriba guruxidagi buzoqlar tug'ilgandan keyin 1, 2, 3, 6, 9, 12, 15, 18, oyligida har biri alohida tarozida tortilib tirik vazni aniqlanadi. Hayvonlarning konstitutsiya tiplari aniqlanib, 6, 15 va 18 oyligida asosiy tana o'lchamlari (yelka, orqa, bel va dumg'aza balandligi, ko'krak chuqurligi va kengligi, maklok suyaklari kengligi, tananing qiya uzunligi, ko'krak, kaft va orqaning yarim aylanasi) aniqlanadi va shu ma'lumotlar asosida tana tuzilish indeksleri hisoblanadi (P.Sobirov. A.Kaxarov, S.Dustqulov, 2003).

1-jadval

Tajribadagi buzoqlarning tana-qism o'lchovlari.

T/p	O'lchovlar nomi	Qizil cho'l zoti (sm)			Qizil cho'l x Angler duragayi (sm)		
		1 oylik	3 oylik	5oylik	1 oylik	3 oylik	5oylik
1	Yag'rin balandligi	77.5	95.1	104.2	78.1	95.5	105.2
2	Dumg'aza balandligi	82	98.2	108	82.2	99.8	110
3	Ko'krak kengligi	19.2	23	26.4	20.3	23.2	27
4	Ko'krak qafasi aylanasi	78	102	128.2	79.1	102.6	129
5	Tananing qiya uzunligi	55.5	87.3	118.1	56.4	88.1	119.1

6	Maklaklar-yonbosh cho'qqilari orasidagi kenglik	17	23	30.2	19.1	23.7	30.9
7	Ko'krak chuqurligi	35	45	54	37	46.3	54.6
8	Poycha yo'g'onligi	11.2	13.5	14.5	11.7	14.1	14.9



**Xulosa va takliflar:** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, respublikaning janubiy hududi hisoblangan Qashqadaryo viloyatida qoramol go'shti ishlab chiqarishda qizil cho'l zotiga mansub buzoqlarning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari va qizil cho'l bilan angler zotli qoramollardan olingan avlodlarini taqqoslab urganiladi. Olingan ma'lumotlar asosida ilmiy maqolalar chop etiladi. Uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqiladi. Olingan natijalar qoramol zotlarini urchitishga mo'ljallangan xo'jaliklarda sinab ko'riladi va ijobiy natijalar joriy etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.08.2023 yildagi PQ-285-son
2. Nosirov U. N., Qoramolchilik, T., 2001.
3. Стрекозов Н.И. Методические рекомендации по адаптации импортного крупного рогатого скота к технологическим условиям хозяйств Калужской области / Н.И. Стрекозов, Н.В. Сивкин, В.И. Чинаров и др.- Дубровицы: ГНУ ВИЖ Россельхозакадемии.- 2012.- 65с.
4. Сивкин, Н.В. Адаптационные качества скота симментальской, чернопестрой, айрширской и красной шведской пород на комплексах промышленного типа / Н.В. Сивкин, В.И. Чинаров, Н.И. Стрекозов, С.И. Волков, О.Б. Неживова // Зоотехния. – 2012. - №12. – с. 5-7.
5. <https://agro-olam.uz/category/chorvachilik/>
6. <https://agrovesti.net/lib/tech/cattle-tech/simmentalskaya-poroda-korov-usloviya-i-perspektivy-razvedeniya.html>
7. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Simmental\\_qoramol\\_zoti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Simmental_qoramol_zoti)
8. O'.A. Rahmanov, NE Khudoynazarova, Karimov MG, Ibragimov BH. Morphofunctional Properties of the Adrenal Glands of Rabbits. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April. P 79245-7251.
9. Babashev, A. Saparov, A. R. Rahmanov, O.A. Narzullayeva, F.S. 2022.Lite5ratu5re data of pat6homorphologyof joint diseases in horses. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(11), 271-274.
10. Norboev, K.N. Rahmonov, U.A. Ruzikulov, N.B. Eshburiev, S.B.(2022). Effectiveness of Vitaprem and Probiotic Bio-3s in Group-Prophylaxis of Hens.
11. Normuradova Z.F. Karimov. M.G., Ibragimov B.Kh. Toxic Effect of Gossypol-Containing Food on Chickens. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April. 7252 – 7257.
12. Karimov, M. G., Saparov, A. R., Tuhtayeva, S. O., & Ahmedova, U. S. (2023). Morphological Indicators of Blood in Aseptic Inflammation of Joints in Horses. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(2), 61-63.
13. Мадрахимов, Ш. Н., Амиров, Ш. Қ., Нурбаев, Э. Д., Садиков, Д. Р., Каримов, М. Г., & Бегматов, С. Х. (2023). Қорабайир зотли насли айғирларнинг экстерьер хусусиятлари. Academic research in educational sciences, 4(1), 122-130.
14. Gulyamovich, M., & Hakimovich, I. B. (2021). Morphofunctional properties of the adrenal glands of rabbits. Webology (ISSN: 1735-188X), 18(1), 19-24.
15. Gulyamovich, M., & Hakimovich, I. B. (2021). Morphofunctional properties of the adrenal glands of rabbits. Webology (ISSN: 1735-188X), 18(1), 19-24.
16. Раҳмонов, Ў. А., Сапаров, А. Р., & Қахарова, М. К. (2022). Отларда йирингли конъюнктивитни даволаш. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(6), 405-408.
17. O`A Rahmonov, NE Khudoynazarova, Karimov MG, Ibragimov BH. Morphofunctional Properties of the Adrenal Glands of Rabbits. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April. 7245-7251.

18. Раҳмонов, Ў. А., Сапаров, А. Р., & Азимова, Д. М. (2022). Катарал кератоконъюнктивитларни даволашда ноанъанавий усулларни қўллаш. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(6), 401-404.
19. Gulyamovich, M., & Hakimovich, I. B. (2021). Morphofunctional properties of the adrenal glands of rabbits. Webology (ISSN: 1735-188X), 18(1), 19-24.
20. Babashev, A., Saparov, A. R., Rahmonov, O. A., & Narzullayeva, F. S. (2022). Literature data of pathomorphology of joint diseases in horses. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(11), 271-274.